



**O'ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGINING
DOLZARB MUAMMOLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Professor, filologiya fanlari doktori, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, yirik folklorshunos olim Safarboy Ro‘zimboyev tavalludining 80 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan

**O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING
DOLZARB MUAMMOLARI**

**mavzusidagi Respublika II an‘anaviy ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI**

(14-mart, 2022-yil, Urganch)

**“XORAZM YOSHLARI”
nashriyot-matbaa uyi.
Urganch- 2022**

KICHIK SHE'RIY SHAKLLAR VA MUMTOZ ADABIYAN'ANALAR

Guljahon DOSHANOVA,

QQDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

katta o'qituvchisi

guljaxandoshanova@gmail.com

Hozirgi zamon o'zbek she'riyatidagi kichik janrlar asosini qaysidir ma'noda mumtoz sharq she'riyatiga bog'lash o'rinli bo'ladi. Zero, zamonaviy o'zbek she'riyatida to'rt misradan iborat shakl – to'rtlik keng ommalashgan bo'lib, uni mualliflar ko'p hollarda “ruboiy” deb ham nomlashadi.

Holbuki, o'zbek mumtoz poetikasida ruboiyga “sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan lirik janr, hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yozilishi”ga urg'u beriladi. Demak, ruboiy mumtoz aruz vaznining hazaj barida bo'lishi qat'iy qoida sanaladi. Shuningdek, nazariy manbalarda ruboiyning qofiyalanish tartibiga ko'ra “a-a-b-a tarzida qofiyalanishi ham aytiladi. Ruboiy fors va arab she'riyatida keng qo'llaniladigan janr sanalib, keyinchalik o'zbek mumtoz shoirlari ham bu janrda ko'plab she'rlar yozishdi. Shu bilan birga ruboiy genezisini ba'zi adabiyotshunos olimlar turkiy xalqlar og'zaki ijodida mavjud bo'lgan to'rtliklar bilan ham bog'lashadi. Tabiiyki, Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida jamlangan ko'plab xalq qo'shiqlari to'rt misradan iborat ekani ayni fikr uchun asos bo'ladi. Adabiyotshunos Yoqubjon Ishoqov o'zbek adabiyoti tarixida eng ko'p ruboiy yozgan shoir sifatida Alisher Navoiyni ko'rsatadi va yozadi: “Biror to'rtlikni ruboiy deb atash uchun unda tugal mazmun, ruboiy shakli bo'lishidan tashqari, ruboiy vazni ham bo'lishi kerak. To'rtlik qanchalik chuqur ma'no va go'zal shaklga ega bo'lmasin, agar u ruboiyning maxsus vazniga tushmasa, ruboiy bo'la olmaydi” [Yo. Ishoqjonov, 2014:154]. Darvoqe, ayrim mumtoz ruboiylarning har tort misrasi ham qofiyalangan bo'lishi mumkin. Uni “taronai ruboiy” deb atash urfga kirgan. Alisher Navoiyning:

“Ko'nglumni g'amu dard ila qon ayladi ishq,

Ko'z yo'lidin ul qonni ravon ayladi ishq.

Har qatrani bilmadim qayon ayladi ishq,

Bedil ekanim buyla ayon ayladi ishq”

degan ruboiysi fikrimizning dalilidir. Qolaversa, mumtoz shoirlar ijodidagi kichik janrlar o'z xususiyatlari, mazmuniy teranligi bilan she'riyat muxlislari diqqatini o'ziga jalb etadi. Ularni yod olish ham ko'pincha oson kechadi.

Kurinadiki, zamonaviy o'zbek she'riyatidagi to'rtliklar qaysidir ma'noda sharq she'riyatidagi ana shunday shakllarga borib bog'lanadi. Shoirlar o'tmishda o'tgan ustoz shoirlar ijodiga havas qilgan holda o'z to'rtliklarini “ruboiy” deb nomlayotgani shundan dalolat beradi. Shu o'rinda sharq she'riyatidagi yana bir kichik janr xususida fikr yuritish o'rinli bo'ladi. “Tuyuq” deb nomlangan bu she'riy shaklga o'zbek adabiyotshunosligida lug'aviy tomondan “tuymoq, his etmoq” degan ma'nolarga egaligini ta'kidlash bilan birga “turkiy xalqlar she'riyatidagi to'rt misrali, tajnisli qofiyaga asoslangan, ramali musaddasi maqsur

vaznida yoziladigan lirik janr. Tuyuqlar, ko‘pincha, a-a-b-a tarzida qofiyalanadi, shuningdek, a-a-a-a yoki a-b-v-b tarzida qofiyalangan ko‘rinishlari ham mavjud”, deb ta’rif beriladi [Quronov,2010: 336]. Tuyuqning kelib chiqishini ham xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘lash mumkin. Keyinchalik bu mumtoz she’riy shaklda Lutfiy, Navoiy, Bobur, Ubaydiy, Ogahiy kabi qator shoirlar keng foydalanishgan. Darhaqiqat, tuyuqda omonim so‘zlar qo‘llanilishi va maxsus aruz vaznida bo‘lish shart sanaladi. Tabiiyki, bunday she’rni yozish uchun shoir ulkan iste’dod egasi bo‘lmog‘i lozim. Garchand aruz vazniga tushmasa ham ayrim zamonaviy o‘zbek shoirlari ijodida tuyuqqa o‘xshash t o‘rtliklar borligini inkor etib bo‘lmaydi.

G‘amlarni o‘zga “do‘stu yor” deb bilgan iste’dodli shoir Rauf Parfi ko‘plab t o‘rtliklar yozdi. Uning to‘rt misradan iborat:

“Yo‘q, shoir deb qarama atay,

Hukm etmakka shoshilma bir oz.

Men kuyinib sevaman, netay?

Men kuyinib so‘zlayman, xolos”. [R.Parfi,2013:31]

degan she’ri barcha davr shoirlari tabiatiga qaysidir jihatdan mos keladi.

Zamonaviy o‘zbek shoirlari orasida Sirojiddin Sayyid o‘z twrtliklarining har jihatdan puxta-pishiqiligi bilan ajralib turadi. Shoirning wzi ayni she’riy shaklga ehtiyoj tug‘ilishi to‘g‘risida shunday yozadi: “Bu to‘rtliklarni men osmondan olib yozmadim. Bolalikda, rahmatli momodan ko‘p eshitganim, yangalarimga aytadigan “Qiliqning issig‘i - baxtning isirig‘i” yoki “Ayol - erkakning vaziri” degan gaplardan tortib to hozirga qadar, Toshkanning Eski j o‘va bozorida “Do‘mboqqina handalaklardan olib keting” degan opaxonning s o‘zlarigacha - hammasi o‘zimga tanish, qadrli, ko‘nglimga, hayotimga daxldor kechinmalardir.

Ularda nomlar, ismlar bor: ulug‘ zotlarning, ustozlarimizning nomlari, yana boshqa nomlar. Tilga olish bahonasida men bu zotlar oldidagi uzib bo‘lmas qarzimni nazarda tutganman. “O‘choqdagi o‘t boshqa-yu yurakdagi o‘t boshqa” deganlaridek, bu yozganlarim - balki mening yana bir urinishim, ko‘ngilga tomon yana bir chog‘lanishimdir. Yozilmagan katta she’rlarning parchalaridir, balki kunlarim, tunlarimning bo‘laklaridir. Bilmayman. Nima bo‘lganda ham boshimdan, ko‘nglimdan kechirdim shularni”. [S.Sayyid,2004:6]. Shoirning “yozilmagan katta she’rlarimning parchalaridir” degan iqrorida ham ulkan ma’no bor. Barcha ijod namunalari shoir umrining bo‘lagi – tunlari va kunlarida boshidan kechirgan tuyg‘ulari sanaladi.

Aslida ruboiy, to‘rtlik, tuyuq, uchlik, ikkilik deb nomlangan she’riy shakllar zamonaviy o‘zbek shoirlari ijodida ko‘p qo‘llanadi. Zamona shoirlari o‘zlari yozgan kichik janrdagi she’riy shakllarga ba‘zan misralar sonidan kelib chiqqan holda, ba‘zan mumtoz she’riyat an‘analariga mos ravishda janrini belgilash holatlari kuzatiladi.

Ushbu maqoladagi fikr mulohazalardan xulosa qilib quyidagi fikr-mulohazalarni bayon etish joizdir.

Birinchiidan, umuman olganda zamonaviy o‘zbek shoirlarining kichik va ixcham she’riy shakllari o‘ziga xos mavzularni badiiy talqin qiloganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, zamonaviy toʻrtliklarni mumtoz adabiy janr boʻlgan ruboiy yoki tuyuq bilan aralastirib yubormasdan, ularni oʻz nomi bilan “toʻrtlik” deb atash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Dilmurod Qur'onov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lugʻati. Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti. 2010 yil.
2. Yoqubjon Ishaqov. Soʻz sanyati s oʻzligi. Toshkent. “Oʻzbekiston” nashriyoti. 2014 yil.
3. Sirojiddin Sayyid. Koʻngil sohili. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti, Toshkent. 2004 yil.
4. Rauf Parfi. Saylanma. Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti. 2013 yil.

ERKIN SAMANDARNING “SULTON JALOLIDDIN” ASARIDA OT OBRAZI

Sarvar ATA JANOV,

UrDU tayanch doktoranti

Yozuvchi ramz, tush, xayolot, obrazlar, peyzaj kabi folklorga xos omillarni stilizatsiya asosida oʻz asariga singdirar ekan, yangi tasvir usuli topish, yangi tasviriy vositalar izlash orqali roman badiiyatini yuksaltiradi, yangicha poetik tamoyillarga erishadi. Folklorga xos anʼanalarga erishish xalqning turmush tarzi toʻgʻrisida salmoqli lavhalar yaratishga yoʻl ochadi.

Erkin Samandar obrazlar stilizatsiyasiga ham katta eʼtibor qaratadi. Bu borada u xalq eposidagi timsollarga murojaat qilib realistik lavhalarga dostonlardagi ot obrazini olib kiradi.

“Boshqa turk xalq vakillari kabi otga alohida ehtirom va eʼtiqod bilan munosabatda boʻlgan qirgʻiz va oʻzbeklar orasida qadimgi mifologik qarashlar, totemistik tushuncha va tasavvurlar asosida qanotli tulporlar, duldul otlar obrazi paydo boʻlgan”¹.

Erkin Samandar aksariyat asarlarida ot obraziga qayta-qayta murojaat qiladi bu uning azaldan ot zotiga oshuftaligidandir. “Sulton Jaloliddin” romanida yana bir ot obrazi eʼtiborni tortadi. Bu Jaloliddinning Qorabayridir. “Qorabayr yogʻiyning zich qatorlarini ikkiga boʻlib borardi. Old oyoqlarini koʻtargancha roʻpara kelganni tepinib orqaga itqitadi, yontomonlaridan kelganlarini urib-surib yuboradi, ust-ustiga kishnab raqiblarga qoʻrquv soladi. Bu holat unga egasidan oʻtgan. Sulton egarda moʻjiza koʻrsatadi. Shamshiri zarbiga yogʻiy dosh berolmaydi. Noʻyonlar va navkarlar diliga qoʻrquv solib, birlari yer tishlab, birlari tisarilib boradi”².

Qorabayr va uning egasi haqidagi ushbu tasvir bizga bevosita Goʻroʻgʻli bilan Gʻirot munosabatini eslatadi:

¹ Алисултонова Н. От образининг бадий талкинлари // “Ўзбек тили ва адабиёти”. 2021 №4. –Б.94-97.

² Эркин Самандар. Султон Жалолиддин. –Т.: “Адабиёт ва санъат”, 2007. –Б.286.

Akbar Otaboyev. Abdurazzoq Faqiriy lirikasida qofiya qo'llash mahorati.....	240
Abdulla Xudoyberganov. Adabiy manbalarda Sulaymon Boqirg'oniy haqida.....	242
Dilorom Qo'ziyeva. Ogahiy g'azallarida sabr maqomi.....	244
Hulkar Ibragimova. "Gulshani davlat" asarining tarkibiy tuzulishi haqida.....	247
Sadoqat Otamuratova. Badiiy obraz yaratishda munis mahorati.....	249
Saodatjon Atadjanova. "Zubdat ut-tavorix" asaridagi masnaviyalarda muqayyad qofiya.....	252

IV. XX ASR VA ZAMONAVIY ADABIYOT: TAHLIL VA TALQIN MASALALARI

Marhabo Qo'chqorova, Fazilat Masharipova. SHoyim Bo'tayev nasrida urush mavzusining badiiy talqini.....	257
Bekposhsha Rahimova. Sohir she'riyat.....	262
Manzura Pirnazarova. Omon Matjon ijodida epiklik.....	265
Nasiba Djumaniyazova, Q.Saporboyeva. Yuragimda so'ngsiz hijron bor.....	270
Matluba Yaqubova. Erkin Samandar she'riyatida o'xshatish sodda tashbehlarni qo'llash mahorati.....	272
Guljahon Doshanova. Kichik she'riy shakllar va mumtoz adabiy an'analar.....	274
Sarvar Atajanov. Erkin Samandarning "Sulton Jaloliddin" asarida or obrazi.....	276
Nodira Yangiboyeva. "Mangu yo'ldosh" hikoyasining tarjimai holi.....	278
Muyiba Otamuratova. Haq nafasini tuygan shoira (Halima Ahmedova ijodida turfa tuyg'ular tasnifi).....	285
Saodatjon Gulimmetova. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida Sobir O'nar asarlarining o'rni.....	288
Ro'za Ganjayeva. Mahmud Toirning "Otamning o'kinchi" dostoni tahlili.....	290
Moxira Yuldashva. Xalq ardoqlagan adib.....	295
Saida Matnazarova. Isajon Sulton nasrida folklor.....	298
Gulasal Sultonbayeva. Omon Matjonning maqol va matallardan foydalanish mahorati.....	301
Sevara Bekchanova. Umaralai Normatovning "Nafosat gurunglari" asari xususida.....	304
Lobar Rajabboyeva. Nazar Eshonqulning "Qora kitob" qissasida majoziy obrazlar talqini.....	308
Iroda Qalandarova. Zamonaviy o'zbek hikoyanavislari ijodida inson ruhiyati va tasvir mahorati.....	312
Shahodat Isakjanova. She'riyatga ko'chgan shaxsiyat.....	314
Maftuna Jumanazarova. To'ra Sulaymon lirikasida bahor.....	318
Gulianbar Quranbayeva. Xotiralarda Matnazar Abdulhakimning shaxs va ijodkor sifatidagi talqini.....	321
Durjongul Turdiyeva. "Shaytanat" asarida davr muammolari talqini.....	324
Bekposhsha Ahmedova. "Ijodning jon tomiri" kitobida olimning ilmiy olami.....	327
Hulkaroy Sharipova. Erkin Samandar muxammaslari badiiyati xususida ba'zi mulohazalar.....	330
Nigora Quدراتova. Shoira Shams ijodida she'riy san'atlarning qo'llanilishi.....	332
Dilrabo Sagatova. Bahrom Ro'zimuhammad ijodi: modernizm, postmodernizm, badiiy tafakkur.....	335
Mohichehra Rustamova. Matonat va sadoqat timsoli bo'lgan shoira ijodida yana bahor vasfi.....	337
Maxliyo Rahimboyeva. Rauf Parfi she'rlarida qor obrazi.....	339

V. JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI: HAMKORLIK ALOQALARI

Саломат Джуманиязова. Дасти як музыкально-поэтическое наследие узбекского народа.....	343
--	-----